

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON  
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**G.N.Shokirova**

Amaliy ishlataladigan yakka insektitsidlarni g'o'za tunlamiga qarshi qo'llash va ularning samaradorligini aniqlash ..... 734

**G.N.Shokirova**

Aralashma insektitsidlarni g'o'za tunlamiga qarshi qo'llash samaradorligini aniqlash ..... 738

**M.A.Abdurahimova**

O'zbekiston hududida o'suvchi dorivor o'simliklarni dorivorlik xususiyatini o'rgatish orqali talabalarning tibbiy savodxonligini rivojlantirish ..... 742

**B.K.Boboyev, O.K.Usmonov, S.Sh.Kabilov, M.B.Xoliqov, M.B.Maxammadaliyev**

Innovatsion texnologiyalar asosida chorvachilik sohasini rivojlantirish ..... 745

**U.B.Mirzayev, X.A.Abduxakimova**

Farg'ona vodiysi bo'z va cho'l mintaqasi tuproqlarining unumdorligi ..... 749

**G.T.Sotiboldiyeva, X.A.Abduxakimova**

O'simliklarni oziqlanishi va o'g'it fanini o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish ..... 754

**D.Sh.Sultonov**

O'zbekiston po'stloqxo'r qo'ng'izlarining taksonomik ro'yxati ..... 757

---

GEOGRAFIYA**Y.I.Ahmadaliyev, N.A.Fattoxov**

Factors of pollution of the geoecological condition of agglomerations (on the example of Fergana-Margilan agglomeration) ..... 762

**O.I.Abduganiev, Kh.Abdullaeva**

Agrotourism as a factor of sustainable rural development ..... 765

**I.I.Abdug'aniev, D.B.Kosimov**

Transchegaraviy muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etishning ekologik-geografik asoslari ..... 770

**R.T.Pirnazarov, S.I.Usmonova**

Ulkan to'g'onlar geografiysi va ular bilan bog'liq favqulodda vaziyatlar ..... 778

**R.Y.Xolikov, I.Y.Zikirov**

Farg'ona vodiysi relefini qiyalik darajasi va uni GIS dasturlari yordamida kartalashtirish ..... 783

**A.A.Xamidov**

O'zbekistonda zoogeografik tadqiqotlarning rivojlanishi ..... 788

**R.T.Pirnazarov, Sh.N.Axmadjonova**

O'rta Osiyodagi to'g'onli ko'llarning genetik turlari va ularni tasniflash masalalari ..... 793

**N.O'.Komilova**

Ijtimoiy-geografik yondashuv asosida etnoekologik madaniyatni o'rganish masalasi ..... 798

**J.J.Mamatisakov**

O'quvchilarni geolog kasbiga qiziqtirishda maktab geografiya ta'limining o'rni ..... 803

**D.B.Kosimov, Z.I.Mamirova, Sh.S.Sobirova**

Ekologik-xo'jalik holatni baholash asosida yerdan foydalanishning hududiy tarkibini takomillashtirish ..... 807

**L.M.Saydaliyeva**

Sakral landshaftlarni xosil bo'lishining tabiiy - tarixiy jihatlari ..... 813

**A.E.Madraximov**

Joy Relyefi va uning o'zgarishi haqida ma'lumot beruvchi geografik nomlar ..... 819

---

EKOLOGIYA**M.T.Abdullayeva, L.A.Tadjibayeva**

Qishloq xo'jaligida yerni boyitishda don dukkakli o'simliklarning ro'li ..... 822

**S.A.Mamatqulova, T.E.Usmanova, I.R.Asqarov**

Analysis of macro and micro elements in the biologically active supplement "AS-OROM" ..... 827

**M.T.Abdullayeva, L.A.Tadjibayeva**

Sansevieriya (Sansevieria) o'simligining ayrim bioekologik xususiyatlari va uni yetishtirish texnologiyasi ..... 831



УО'К: 504.05

**TRANSCHEGARAVIY MUHOFAZA ETILADIGAN TABIIY HUDDULARNI TASHKIL ETISHNING  
EKOLOGIK-GEOGRAFIK ASOSLARI**

**ЭКОЛОГО-ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ ТРАНСГРАНИЧНЫХ  
ОХРАНЯЕМЫХ ПРИРОДНЫХ ТЕРРИТОРИЙ.**

**ECOLOGICAL AND GEOGRAPHICAL BASIS FOR THE ORGANIZATION OF  
TRANSBOUNDARY PROTECTED NATURAL AREAS**

**Abdug'aniev Olimjon Isomiddinovich<sup>1</sup>** 

<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti geografiya kafedrasи dotsenti, g.f.d

**Kosimov Dilshod Baxodirovich<sup>2</sup>**

<sup>2</sup>Farg'ona davlat universiteti ekologiya va botanika kafedrasи o'qituvchisi

**Annotatsiya**

*Ilmiy ishlarda chegara hududlarda muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish va ulardan turli maqsadlarda foydalanish orqali katta iqtisodiy foyda olish imkoniyatlari asoslab berilgan. Shu bois, maqolada O'zbekiston Respublikasining chegaradosh hududlarida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish imkoniyatlari Farg'ona viloyati misolida ko'rib chiqildi. Shuningdek, Farg'ona viloyatining chegaradosh hududlarida qo'shni davlatlar bilan hamkorlikda transchegaraviy muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimini shakllantirish hamda istiqbolda ulardan barqaror foydalanish ikoniyatlari geografik jihatdan taxsil qilindi. Bu borada, Farg'ona viloyatining chegara zonalarida biologik va landshaft xilma-xilligini saqlashda muhim bo'lgan noyob tabiiy obyekt va hududlarni aniqlash hamda ularga transchegaraviy muhofaza etiladigan tabiiy hudud maqomini berish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

**Аннотация**

*В научных работах обоснованы возможности получения больших экономических выгод за счет создания на приграничных территориях охраняемых природных территорий и использования их в различных целях. Поэтому в статье рассмотрена возможность создания охраняемых природных территорий в приграничных регионах Республики Узбекистан на примере Ферганской области. Также были географически проанализированы возможности формирования системы трансграничных охраняемых природных территорий в приграничных регионах Ферганской области во взаимодействии с соседними странами и их устойчивого использования в будущем. В связи с этим разработаны предложения и рекомендации по выявлению редких природных объектов и территорий, имеющих важное значение для сохранения биологического и ландшафтного разнообразия в приграничных зонах Ферганской области, и присвоению им статуса трансграничных охраняемых природных территорий.*

**Abstract**

*Scientific works substantiate the possibilities of obtaining greater economic benefits through the creation of protected natural areas in border areas and their use for various purposes. Therefore, the article examines the possibility of creating protected natural areas in the border regions of the Republic of Uzbekistan using the example of the Fergana region. The possibilities of forming a system of transboundary protected natural areas in the border regions of the Fergana region in interaction with neighboring countries and their sustainable use in the future were also geographically analyzed. In this regard, proposals and recommendations have been developed for identifying rare natural objects and territories that are important for the conservation of biological and landscape diversity in the border zones of the Fergana region, and assigning them the status of transboundary protected natural areas.*

**Kalit so'zlar:** chegara hududi, transchegaraviy hudud, transchegaraviy muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, biologik xilma-xillik, barqaror rivojlanish, ekoturizm, EKONET, geoekologiya, landshaft-indikatsiya.

**Ключевые слова:** приграничная территория, трансграничная территория, трансграничные охраняемые природные территории, биологическое разнообразие, устойчивое развитие, экотуризм, ЭКОНЕТ, геоэкология, ландшафт-индикация

**Key words:** border area, transboundary area, transboundary protected natural areas, biological diversity, sustainable development, ecotourism, ECONET, geoecology, landscape indication

## KIRISH

XXI – asr boshlarida ilmiy tadqiqotlarda transchegaraviy hududlarni o'rganish va baholashga e'tibor kuchaydi. Bu, bir tomondan, SSSRning parchalanishi va o'z davlat chegaralarini o'rnatishga intilayotgan yangi mustaqil davlatlarning paydo bo'lishi, ikkinchi tomondan, yagona tabiiy-tarixiy hududda joylashgan davlatlarning transchegaraviy resurslardan hamkorlikda foydalanish bo'yicha istiqbolli kelishuvlari bilan bog'liq bo'ldi. Shuni ta'kidlash kerakki, geoekologik tadqiqotlarda «chegara hududi», «transchegaraviy hudud», «transchegaraviy muhofaza etiladigan tabiiy hudud» kabi tushunchalarining aniq ta'rifni keltirilmagan. Ko'pincha «chegara hududi» geosiyosi yoki ijtimoiy-iqtisodiy tushuncha sifatida talqin qilinadi [4].

Markaziy Osiyoda ham ikki yoki undan ortiq davlat hududida joylashgan tabiiy resurslardan foydalanishni tartibga solish va oqilona foydalanishni yo'lga qo'yish muammosi uzoq vaqtidan beri mavjud bo'lib, O'zbekiston uchun ham dolzarbdir. Shu bois, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «Markaziy Osiyoda ekologiya, atrof-muhitning ifloslanishini oldini olish va tabiatni muhofaza qilish borasida hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish» yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan.

Markaziy Osiyoda transchegaraviy tabiatni muhofaza qilish bo'yicha mintaqaviy muloqot Toshkent shahrida 2023 yil 28-30 noyabr kunlari Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston davlat tashkilotlari, mahalliy va xalqaro tashkilotlar vakillari ishtirokida tashkil etilgan. Mazkur tadbir O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tomonidan Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqi (IUCN), Jahon banki va Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyatni (GIZ) bilan hamkorlikda Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida EKONET-Markaziy Osiyo (EKONET-hayot tarmog'i) loyihasi bo'yicha mintaqaviy hamkorlikni amalga oshirish maqsadida tashkil etilgan. Mazkur tadbirda tomonlar transchegaraviy muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar maydonlarini kengaytirish va ularni yaxlit tizimga birlashtirish orqali ko'chib yuruvchi turlarning migshratsiyasini ta'minlash yuzasidan bir qator kelishuvlarga erishdilar.

Bunday kelishuvlar jayron va sayg'oq kabi noyob turlarning muhim migratsiya yo'llari joylashgan Markaziy Osiyo uchun katta ahamiyatga egadir. Bu borada, transchegaraviy tabiatni muhofaza qilish dasturlarini qo'llab-quvvatlash uchun IUCN va Butunjahon muhofaza etiladigan tabiiy hududlar komissiyasi (WCPA) tomonidan umumiy tamoyillar va amaliy tavsiyalari ishlab chiqilgan. Mazkur tavsiyalar transchegaraviy tashabbusni amalga oshirishni maqsadga muvofiqligini baholash va tomonlarning manfaatlarini boshqarish strategiyalarini ishlab chiqish jarayoniga xalal berishi mumkin bo'lgan xavflarni kamaytirish bo'yicha umumiy xulosalarni ishlab chiqish imkonini beradi .

Bu borada, Farg'ona viloyatining chegara zonalarida biologik va landshaft xilma-xilligini saqlashda muhim bo'lgan noyob tabiiy obyekt va hududlarni aniqlash hamda ularga transchegaraviy muhofaza etiladigan tabiiy hudud maqomini berish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

## ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODOLOGIYASI

Transchegaraviy muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish masalalari bo'yicha ko'plab taniqli olimlar, jumladan N.T.Bishoff, M.Hockings, S.Stolton, N.Dudley, K.Sepp, I.M.Bouwma, R.H.G.Jongman, G.Bennett, L.Miklós, B.Oyuungerel va MDH olimlari N.F.Reymers, F.R.Shtilmark, V.B.Sochava, A.A.Chibilyov, A.A.Tishkov, N.M.Zabelin, Y.G.Puzachenko, N.A.Sobolev, A.N.Ivanov, T.P.Kalixman, S.L.Kopilova, O.I.Abdug'aniyev va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Ushbu olimlarning tadqiqotlarida TMETHlarni tashkil etish, chegara hududlarining umumiy ekologik holatini baholash, biologik va landshaft xilma-xilligini muhofaza qilish masalalari o'rganilgan. Shuningdek, hududlardagi ekologik vaziyatni baholashda landshaft, biogeografik, tizimli va kompleks geografik yondashuvlarning mazmun-mohiyati yoritilgan.

Biroq, yuqorida sanab o'tilgan tadqiqotchilar ishi mavzui doirasidagi muammoni ma'lum bir yo'nalishda o'rgangan bo'lib, aynan bajargan tadqiqotlariga mos bo'lgan natijalarga hamda tegishli ilmiy-amaliy xulosalarga kelganlar. Mazkur tadqiqot ishida TMETHlarni aniqlash va tashkil etish bilan bog'liq muammolarini hal qilishda EKONET-Markaziy Osiyo (EKONET-hayot tarmog'i) loyihasi doirasida olib borilgan tadqiqotlarning natijalariga asoslandi [1, 7, 9].

Shuningdek, O'zbekistonda landshaftlar degradatsiyasi yuqori hududlardan biri bo'lgan Farg'ona vodiysi misolida biologik va landshaft xilma-xilligini saqlab qolish hamda barqaror foydalanishda muhim bo'lgan transchegaraviy hududlarni baholash, ularning huquqiy maqomini aniqlash hamda amaliyatga joriy etish yuzasidan taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Tadqiqotda dala-tadqiqot, kartografik, GAT texnologiyalari, landshaft-indikatsiya, marshrutli ekspeditsiya, matematik tahlil, statistik, tizimli va qiyosiy tahlil, tarixiy, tasniflash kabi usullardan foydalanilgan. TMETHlarni boshqarishni optimallashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqishda Butunjahon tabiatni muhofaza qilish ittifoqi (IUCN) va Yovvoyi tabiat fondi (WWF) tomonidan ishlab chiqilgan METHlarni boshqarish samaradorligini baholash va ustuvorliklarini aniqlash metodologiyasidan foydalanildi.

### NATIJALAR VA MUXOKAMA

O'zbekistonning cho'l, tog' va suv bo'yи ekotizimlari ham Butunjahon Yovvoyi tabiat fondi(WWF)ning global ro'yxatiga kiritilgan. O'zbekiston Respublikasi ham o'zidagi mavjud METHlarni Markaziy Osiyoda mintaqasi bo'yicha yaxlit tizimga biriktirish hamda «Global 200» ro'yxatidagi ekoregionlarni muhofazasini ta'minlash uchun TMETHlarni tashkil etish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, biologik va landshaft xilma-xilligini saqlab qolish hamda mintaqani barqaror rivojlanishini ta'minlash masalalari "Tabiat - aholi - xo'jalik" uchlik tizimida aholi va xo'jalikning faolligi juda yuqori bo'lgan Farg'ona vodiysi uchun dolzarb xisoblanadi [1, 2].

Bugungi kunda geografiya, geoekologiya, ekologiya kabi tadqiqotlarda yagona tabiiy-tarixiy hudud va transchegaraviy resurslar iboralari keng qo'llanilmoqda. Biroq ularga berilayotgan ta'rif har doim ham bir-biriga mos tushavermaydi. Transchegara hududlarida tabiatdan, uning resurslaridan foydalanishda geografik qonuniyatlarni atroflicha bilish nihoyatda zarur. Shunday qonuniyatlardan biri tabiatning bir butunligi qonuniyatidir. Geotizimlar haqidagi ta'lilotning rivojlanishi tabiatni muhofaza qilish doirasidagi tadqiqotlarda tizimli yondashuvni ustuvor darajaga olib chiqdi.

Transchegaraviy hududlar – bu mintaqaviy va topologik darajadagi tabiiy, tabiiy–antropogen va antropogen tizimlar bo'lib, ular yagona bir-butunlikni ifodalaydi Shuning uchun, bunday hududlardagi landshaft tadqiqotlari ham yagona metodologiyaga asoslangan holda barcha chegara hududlari uchun amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Shu bois, ikki yoki undan ortiq davlatlarning ma'muriy chegarasi tutashgan zonalarni transchegaraviy hudud sifatida mintaqada shakllangan geotizimining bir qismi bo'lgan geografik makon darajasida ko'rib chiqilishi talab etiladi. «Transchegaraviy hudud» yoki «Transchegaraviy resurs» tushunchalarining tabiiy asosini davlat chegarasi zonasida joylashgan yagona geotizim yoki ikki yoki undan ortiq mintaqaviy darajadagi geotizimlar birikmasi tashkil etadi [3, 5, 6].

«Transchegaraviy hudud» sifatida ikki yoki undan ortiq qo'shni davlatlarning o'zaro ta'sirida bo'lib turuvchi chegara hududlaridan tashkil topgan, tabiiy resurslar majmuasi va ma'lum iqtisodiy faoliyat turlariga ega bo'lgan murakkab geografik tuzilma tushuniladi. Chegara hududlardagi ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy va ekologik holat hamda ularning barqaror rivojlanish darajasi bir-biriga qo'shni davlatlarning ichki va tashqi siyosatiga bog'liqdir. Chegaralar hududiy tizimlarning o'ziga xos elementlari sifatida bir vaqtning o'zida qo'shni davlat hududlarini ajratish (to'siq) va bog'lash (aloqa) funksiyasini bajaradi. Bunday hududlarni barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun davlatlar o'rtafigi hamkorlik muhim ahamiyatga egadir bo'lib, birgalikdagi keng qamrovli tadqiqotlar asosida har ikki yoki undan ortiq davlatlarni manfaatlariiga mos keluvchi xalqaro dasturlar ishlab chiqish talab etiladi [8, 10, 11].

Ko'rinib turibdiki, transchegaraviy hudud nafaqat siyosiy va ma'muriy chegaralar, balki tabiiy chegaralar doirasida ham ko'rib chiqilishi kerak. Chunki, transchegaraviy hududlarda kechayotgan jarayonlar geotizimlarning shakllanishi va barqarorligiga ta'sir qiladi. Ayniqsa, biologik va landshaft xilma-xillik ko'rsatkichi bo'yicha transchegaraviy hududlar alohida ahamiyatga egadir.

Farg'ona viloyati–O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi viloyat bo'lib, 1938-yil 15-yanvarda tashkil topgan. Respublikaning sharqida, Farg'ona vodiysining janubida joylashgan. Chegara uzunligi 748,6 km bo'lib, shundan sharqda Qirg'iziston davlati bilan 433,0 km, g'arbda Tojikiston davlati bilan 134,6 km, shimolda Andijon viloyati bilan 101,6 km, Namangan viloyati bilan 79,4 kmni tashkil etadi.

## GEOGRAFIYA


Ilmiy adabiyotlar ikki yoki undan ortiq davlat ichida joylashgan tabiiy obyekt va hududlar transchegaraviy resurslar sifatida talqin etilgan. Masalan, M.A.Kosireva ham bunday resurslarni transchegaraviy deb atagan. Uning fikricha, transchegaraviy tabiiy resurslar – bu yagona tabiiy resurs bo'lib, uning joylashuvi (yashash joyi) bir nechta davlatlarning turli milliy va (yoki) xalqaro-huquqiy rejimlariga ega bo'lgan chegara zonalarini qamrab oladi, bunday hududlarda tabiatdan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish uchun har bir davlat javobgardir [4]. Transchegaraviy tabiiy resurslar xalqaro resurslarning boshqa turlaridan, masalan, insoniyatning umumiyligini merosini (Dunyo okeani suvlari) tashkil etuvchi resurslardan farqlanishi kerak. Shu bois, transchegaraviy resurslar tarkibiga quyidagi xalqaro huquq meyorlari asosida tartibga solinadigan obyektlarini kiritish mumkin:

- transchegaraviy suv resurslari;
- foydalı qazilmalarning transchegaraviy konlari;
- ko'chib yuruvchi hayvonlar va ularning migratsiya yo'naliishlari;
- transchegaraviy geoekotizimlar (tabiiy landshaftlar, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar va boshqalar).

Ekologik muammolar geotizimning quyi pog'onalarida shakllanadi va o'zining geografik qamrovini kengaytirib global darajagacha kengayib bormoqda. Geotizimlarning o'zaro tutashgan va o'zaro ta'siri faol bo'lgan bog'lanish zonalarida antropogen ta'sir ko'laming ortib borishi atrof-muhitning yomonlashishiga va geotizimlarning degradatsiyasiga olib kelmoqda. Shu bois, transchegaraviy hududlardagi geotizimlarni o'rganishda tabiatning o'zaro ta'siri xususiyatlari alohida e'tibor qaratish lozim.

Tyan-Shan va Pamir-Oloy tog' tizmalari ham "Global 200" ro'yxatiga kiritilgan ekotegionlardan biri xisoblanadi. Chunki, bu tog' tizmalarida shakllangan ekotizimlarda biologik turlar xilma-xilligining eng yuqori konsentratsiyasi kuzatiladi. Masalan, ildizli o'simlik turlarining soni 10 ming km<sup>2</sup> maydonda 2-3 mingtagacha yetib boradi [12]. Tur va turkumlar konsentratsiyasining ortib borishi umuman olganda baland tog' tizmalarining quyi kenliklari uchun xarakterlidir [13, 14].

Tyan-Shan tog' tizmasi tabiatini muhofaza qilish uchun turli toifa va maqomga ega bo'lgan muhofaza etiladigan tabiiy hudud(METH)lar tashkil etilgan. Shuning uchun, Tyan-Shan tog' tizmasi tabiatidagi noyob landshaftlarni saqlab qolishda transchegaraviy muhofaza etiladigan tabiiy hudud(TMETH)larni barpo etish orqali ularning to'liq uyg'unlikni ta'minlash maqsadga muvofiqdir. O'zbekiston Respublikasining ekotarmoqlari 1-karta-sxemada keltirilgan bo'lib, 8 ta zonaga ajratilgan.




Манбаса: [http://www.wwf.ru/pic/asia/econet\\_maps/econet\\_map\\_uzb.jpg](http://www.wwf.ru/pic/asia/econet_maps/econet_map_uzb.jpg)

Har bir zona uchun ekotarmoq elementlarini takomillashtirish va yangi METHlarni barpo etish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Karta-sxemadagi VIII-zona Toshkent viloyati va Farg'on'a, Andijon va Namangan viloyatlari hududiga to'g'ri keladi.

Mazkur zonada tashkil etilishi rejalashtirilgan METHlar quyidagilar: Ohangaron va Chodak daryolari irmoqlarining yuqori qismlarini o'z ichiga olgan Ibn Sino o'rmon xo'jaligi hududida davlat qo'riqxonasi (27) (mazkur hududa 2022 yilda Pop milliy bog'i tashkil etildi); Markaziy Farg'onada tabiatdan foydalanishning qulay ekologik zonasasi (32); Sirdaryo qayirlarida Abdusamat qo'riqxonasi (33); Markaziy Farg'onada Qaraqalpaq cho'li davlat qo'riqxonasi (34); Adir mintaqasida buyurtma qo'riqxonasi (35, 36); aniq ish tartibiga ega bo'lgan tabiatdan foydalanish zonasasi (42, 43); 2-tartibli yadroga ega va mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan tabiat bog'i (45); 1-tartibli yadroga ega va mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan tabiat bog'i (53).

Tashkil etish rejalashtirilgan METHlardan 27, 33, 35, 36, 42, 43, 45 va 53 raqamlar bilan ko'rsatilganlari O'zbekistonning chegara zonaligiga to'g'ri keladi. Shuning uchun, Tojikiston va Qirg'iziston Respublikalari bilan hamkorlikda mazkur METHlarni tashkil etish va takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borish hamda kelishuvlarga erishish hozirgi kundagi muhim vazifalardan biridir.

Qirg'iziston Respublikasining ekologik tarmoqlari 2-karta-sxemada berilgan bo'lib, ancha murakkabligi bilan ajralib turadi. Qirg'iziston Respublikasi ekologik tarmoqlari (Econet) ham METHlar tizimini barpo etish bo'yicha 8 ta zonaga ajratilgan. Shundan, G'arbiy Tyan-Shan (II), Farg'on'a (VI), Olay (VII) va Turkiston (VIII) tog'li zonalari chegara hududlariga to'g'ri keladi. Bu zonalarda Qirg'iziston Respublikasi tomonidan quyidagi METHlarni tashkil etish va takomillashtirish rejalashtirilgan: Besh-Aral davlat qo'riqxonasi (4); Sari-Chelek va Padisha-Ata davlat qo'riqxonalari, Batraxan o'rmon buyurtma qo'riqxonasi (5); G'arbiy Tyan-Shan biosfera rezervatining bufer zonasasi, Miskin-Say va Kuru-Ko'l o'rmon buyurtma qo'riqxonalari; tabiatdan foydalanish qatiy belgilangan qulay ekologik zonasasi (7, 10).




### Qirg'iziston Respublikasining ekologik tarmoqlari

Shuningdek, tabiatni saqlab qolishga yo'naltirilgan maxsus hududlar (25, 18); ham rejalashtirilgan: milliy bog' yadro va tabiatdan foydalanish qulay ekologik zona (19); botanika buyurtma qo'riqxonasi (23); mikroqo'riqxona (28); paleontologik muzay qo'riqxona (29); tabaqalashgan muhofaza zonasasi (30); mikrobuyurtmaqo'riqxonalar tabiatdan foydalanishning qulay ekologik zonasiga (31) ega bo'lgan hududlar va boshqalar.

Tojikiston Respublikasining ekologik tarmoqlari 3-karta-sxemada berilgan bo'lib, 8 zonaga ajratilgan. Shundan, Sirdaryo bo'yи zonasasi (II) Farg'ona viloyatining chegara hududlariga to'g'ri keladi. Mazkur zonada hozirgi kunda faoliyat yuritayotgan METHlar mavjud emas. Shuning uchun, Oqbel buyurtma qo'riqxonasi (3) va Djazira mikroqo'riqxonasini (4) tashkil etish rejalashtirilgan.

## Tojikiston Respublikasining ekologik tarmoqlari



Manbaa: [pandia.ru/text/80/274/58910-10.php](http://pandia.ru/text/80/274/58910-10.php)

### XULOSA

Markaziy Osiyo EKONET loyihasi O'zbekiston, Tojikiston, Qirg'iziston va Qozog'iston respublikalarining chegara hududlarida TMETHlarni tashkil etish orqali amalga oshiriladi. Masalan, Farg'ona vodiysida ekologik karkasni tashkil etish uchun 2, 3 va 4 karta sxemalarda keltirilgan ekologik tarmoq elementlarini qo'shni respublikalarni chegara hududlarida kengaytirish va ularni birlashtirish orqali erishish mumkin. Demak, mazkur respublikalar mavjud METHlarni takomillashtirish hamda yangilarni tashkil etish buyicha xamkorlikda tavsiyalar ishlab chiqishlari zarurdir. Buning uchun chegara zonalarida TMETHlarni optimal tanlash bo'yicha belgilangan talablarga e'tibor qaratiladi.

Farg'ona vodiysida TMETHlar tashkil etish orqali quyidagi biogeografik va iqtisodiy foydaga erishiladi: bir necha METHlarni yagona tizimiga birlashtirilishi ularning chidamligini oshiradi hamda muhofaza qilish funksiyasining samarasi yuqori bo'ladi; ilmiy tadqiqotlarni hamkorlikda o'tkazilishi unga sarflangan harajatlarni ozaytiradi, ilmiy natijaning ahamiyatini yanada orttiradi; Transchegara METHlaridan rekreatsiya va ekoturizm maqsadlarida keng foydalanish orqali katta iqtisodiy foya olish mumkin.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abduganiev O.I.. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimini takomillashtirish va ulardan foydalanishning geoekologik asoslari (Farg'ona viloyati misolida) // G.f.d. (DSc) ilm. dar. olish uchun taqdim. et. diss. –T., 2023. –291 b.
2. Ahmadaliev YU.I. Yer resurslaridan foydalanish geoekologiyasi. – T.: Fan va texnologiya, 2014. – 340 b.
3. Амозова Е.Е. Трансграничные особо охраняемые природные территории как элемент международного сотрудничества//Материалы международной научно-практической конференции «Экологоправовые проблемы сотрудничества стран Балтийского региона». – Калининград: Калининградский Юридический институт МВД России, 2004. – С.54-59.
4. Бакланов П. Я. Трансграничные территории: проблемы устойчивого природопользования / П. Я. Бакланов, С. С. Ганзей. – Владивосток : Дальнаука, 2008. –216 с.
5. Ганзей С. С. Международные трансграничные территории как объект геоэкологических исследований (на примере юга Дальнего Востока России и Северо-востока Китая) : автореф. дис. ... д-ра геогр. наук / С. С.

## GEOGRAFIYA

Ганзей. – Владивосток, 2005. – 36 с.

6. Иванов А.Н. Принципы организации региональных систем охраняемых природных территорий // Вестн. Моск. Ун-та. Сер.5, География. –М.: 2001. № 1, С. 34-39.

7. Конвенция о биологическом разнообразии (Генеральная Ассамблея ООН, 1992) // Охрана живой природы. –М.: 1994. Вып. 2. С. 22-26.

8. Копылова С.Л. Трансграничные особо охраняемые природные территории мира // Вестник МГУ. География. –М.: 2003. -№ 6 (5). -С. 28-32.

9. Пан-Европейская стратегия сохранения биологического и ландшафтного разнообразия (ПЕС). - Н.Новгород: Изд. экол. центра "Дронт": Изд. Центра охраны дикой природы, 1997. - 77 с.

10. Реймерс Н.Ф., Штильмарк Ф.Р. Особо охраняемые природные территории. -М.: Мысль, 1978. -298 с.

11. Новова Е.Е. Перспективы развития трансграничных особо охраняемых территорий в Калининградской области//ТERRITORIALНАЯ ДИФФЕРЕНЦИАЦИЯ И РЕГИОНАЛИЗАЦИЯ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ: СБОРНИК НАУЧНЫХ СТАТЕЙ. – Смоленск: Универсум, 2006. – С. 164 - 168.

12. Barthlott, W., w. Lauer, A.Placke. Global Biodiversity: Species Numbers of Vascular Plants (Map) //Mountains of the World. A Global Priority. New York - London, 1997.

13. Jenik, J. The diversity of mountain life.// Mountains of the World. A Global Priority. New York - London, 1997, pp. 199-236. Русский перевод: Горы мира. Глобальный приоритет. Москва: Ноосфера, 1999.

14. Chester C.C. Conservation across borders: Biodiversity in an interdependent world. Washington, D.C.: Island Press. 2006.